

YANGI O‘ZBEKISTONDA INSON EKOLOGIK MUHOFAZASI INSTITUTIONAL TIZIMINING TAKOMILLASHTIRILISHI

Hakimov Nazar Hakimovich,

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori

hakimovnazar@gmail.com

Muxiddinova Hakimaxon,

Namangan muhandislik-qurilish instituti katta o‘qituvchisi

muhiddinovahakima@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada yangi O‘zbekiston sharoitida inson ekologiyasini muhofaza qilish tizimini takomillashtirishning dolzarb masalalari va innnovation mexanizmlari tadqiq qilingan. Mualliflar inson ekologiyasi tushunchasi mazmuni, mohiyati va uni amalga oshirish amaliyoti, bevosita jamiyatda olib borilayotgan islohotlar natijasi bilan bog‘liqligini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: Ekologiya, yashil iqtisod, inson, yoshlar, ekologik ta’lim, strategiya, atrof muhit, xavfsizlik.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОЙ СИСТЕМЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ЗАЩИТЫ ЧЕЛОВЕКА В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Хакимов Назар Хакимович,

Профессор, Ташкентский государственный экономический университет

Мухиддинова Хакимахон,

Старший преподаватель, Наманганский инженерно-строительный институт

Аннотация: В статье рассматриваются актуальные вопросы и инновационные механизмы защиты экологии человека в условиях нового Узбекистана. Авторы статьи раскрывают содержание, особенности и практики проблемы экологии человека, тесно связав ее с результатами реформ проводимых в обществе.

Ключевые слова. Экология, зеленая экономика, человек, молодежь, экологическое образование, стратегия, окружающая среда, безопасность.

IMPROVEMENT OF THE INSTITUTIONAL SYSTEM OF HUMAN ENVIRONMENTAL PROTECTION IN NEW UZBEKISTAN

Hakimov Nazar Hakimovich,

Professor of Tashkent State University of Economics

Mukhiddinova Hakimaxon,

Senior lecturer of Namangan engineering - construction Institute

Abstract: The article examines current issues and innovative mechanisms for protecting human ecology in the conditions of the new Uzbekistan. The authors of the article reveal the content, features and practices of the problem of human ecology, closely linking it with the results of reforms carried out in society.

Keywords. Ecology, green economy, people, youth, environmental education, strategy, environment, safety.

KIRISH.

Mamlakatimizning yangi taraqqiyot bosqichida inson ekologik xavfsizligini ta'minlash bevosita islohatlar maqsadi bilan bog'liqdir. Bunday strategik ahamiyatga molik ishlarni amalga oshirishda yer va suv resurslaridan unumli foydalanish masalalarining yechimida, atmosfera havosining tozaligini saqlash, mineral xom ashyo zaxiralarimizning Vatanimiz buguni va kelajagi uchun foydalanishda jonkuyarlik ishlarini amalga oshirishda yoshlarning o'rni muhimdir. Hozirgi davrda ekologik holatning asosiy qismlaridan biri mavjud mineral xom ashyo, shu jumladan, gaz, neft resurslaridan tejimli foydalanishni tashkil etishdan iborat. Masalaning ahamiyati faqat uning tarbiyaviy tomonida emas, balki yurtimizning ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liqligidir. Globallashuv jarayonida, davlatlar orasida iqtisodiy, madaniy aloqalar kengayib borayotgan hozirgi davrda O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyati, shu jumladan, O'rta Osiyodagi tutgan o'rni, xalqaro obro'si muttasil oshib bormoqda. Bunday imkoniyatlarning qo'lga kiritilishida yoshlarimizning bevosita hissi bor.

Ta'kidlash lozimki, yurtimizdagi ekologik muhit, vaziyatning dolzarb masalalarini ilmiy asosda chuqur o'rganish, ekologik mazmundagi loyihalar tuzish, ilmiy ishlar ko'lamini kengaytirish uchun xalqaro hamjamiyatga mansub tashkilotlar bilan hamkorlik keng yo'lga qo'yildi. Bunday vaziyatda inson ekologiyasi himoyasini yanada takomillashtirish, uning institusional asoslarini mustahkamlashni chuqurlashtirish vazifasini ilgari suradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Inson ekologiyasi mustaqil fan sifatida shakllanishida ekologiya mavzuida tadqiqotlar va ularning amaliyotga joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etgan. Tirik organizmlarning, shu jumladan inson ekologiyasi haqidagi ilmiy xulosalar va qarashlarning umumlashtirilishi natijasida innovasion nazariyalar vujudga kelgan. Jumladan, ekolog olim A. F. Middendorf[1] hayvonlarning klimatik sharoitlarda yashashi to'g'risidagi g'oyalarni ilgari suradi. Gekkel, Ernst.[2] ekologiyaning amaliy ahamiyati to'g'risida va uning nazariy jihatlarini tadqiq qilgan. K. Mebius - biosenoz to'g'risidagi tushunchani fanga olib kirgan[3]. Ta'kidlash lozimki o'simliklar ekologiyasi to'g'risidagi tushunchalar ilmiy yondashuvlar, o'simliklar

fiziologiyasi va fitogeografiya atrofida shakllangan. Hozirgi davrda ekologiya rivojlanish bosqichida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar, ko'p jihatdan biosferaning hozirgi holatiga bag'ishlangan. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining soha institutlari yosh tadqiqotchilari, universitetlarda faoliyat ko'rsatayotgan doktorantlar, yosh pedagoglar, doktorantlarning ilmiy tadqiqotlarining ma'lum qismida ekologik muammolarning yechimi izlanmoqda.

Yosh ilmiy tadqiqotchilarga xalqaro, respublikamiz darajasidagi ilmiy amaliy konferensiyalarda ishtirok etish, ekologiyaga bag'ishlangan ilmiy maqolalar to'plamlarida chop etishga amaliy yordam qilmoqda. Eng muhim natijalardan biri yosh olimlarning mustaqil tadqiqotlari natijasida qo'lga kiritgan ilmiy xulosalari, mustaqil ilmiy ishlari tufayli qo'lga kiritgan natijalari asosidagi takliflarining ekologik tizimda amaliyotga kiritilishiga ham yordam bermoqda. Mavzu tadqiqi davomida Hakimov N.H. Zulfikorov Sh.X. Qodirov N.N.O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida ekologik muammolarning vujudga kelishi sabablarini, Hakimov N.H. inson ekologiyasining mohiyati va uning islohatlar ko'lami bilan bog'liqligini o'rgangan[4]. Alixonov B. Jakbarov S. Bioxilmaxillikni saqlash - barqaror rivojlanish omili ekanligini[5], tadqiqotchi Bozorova N.Sh. Talabalarda ekologik madaniyatni rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari (oliy o'quv yurti misolida) tadqiq qilgan[6]. Malikova A.R. Pedagogika oliy o'quv yurti talabalarida ekologik madaniyatni shakllantirish masalalarini[7], Mamashakirov S. Ekologiya amaliy jihatlarini[8], Nishonova N.O'. Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarining ekologik madaniyatini rivojlantirish jihatlarini tahlil qilgan.[9]

Yangi taraqqiyot bosqichida ekologiya asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi. Birinchidan, tabiiy va sun'iy (inson tomonidan yaratilgan) tizimlar tuzilishi va faoliyati haqidagi tadqiqotlar. Ikkinchidan, turlarning joylashish hududi, yoshi, jinsi, haqidagi ma'lumotlar va ularning ko'payishi. Uchinchidan, biosferadagi yashash tizimlari umumiy soniga nisbatan ko'payish qonuniyatlari to'g'risidagi ilmiy qarashlar. To'rtinchidan, turli ekotizimlar orasidagi modda va energiya almashinuvi haqidagi ilmiy xulosalar. Beshinchidan biosferadagi jarayonlar haqidagi umumlashtirilgan tushunchalar hamda biosferada biogen elementlarning

aylanishi, ularni hisoblash metodi baholanishi to'g'risidagi innovasion fikrlar. Shuning uchun ham ekologiya biologik fan sifatida inson va biosfera va atrof-muhit orasidagi munosabatlarni uning tashkiliy jihatlarini o'rganadi. Hozirgi davrda ijtimoiy ekologiya fan sifatida umumiy ekologiyaga va xususiy ekologiyaga bo'linadi. Umumiy ekologiya, o'z navbatida, aholi ekologiyasini, jamiyat ekologiyasining ekotizimini o'rganadi. Xususiy ekologiya, o'z navbatida, o'simliklar ekologiyasi, hayvonlar ekologiyasi, bakteriyalar ekologiyasi va zamburug'lar ekologiyasiga bo'linadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Inson ekologik xavfsizligini ta'minlash institusional tizimi takomillashtirilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 2018 yil 3 oktyabrdagi qarori strategik ahamiyatga ega bo'ldi. Qarorda ta'kidlanganidek, so'nggi yillarda respublikada ekologik xavfsizlikni ta'minlash, ekologik vaziyatni yaxshilash, chiqindilarning insonlar sog'lig'iga zararli ta'sirining oldini olish, shuningdek, hayot darajasi va sifatini oshirish uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida texnik va texnologik jarayonlar oqibatida yuzaga kelayotgan muammolarni hal etishga yangi yondashuvlarni joriy qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichida ekologik muvozanatni uyg'unlashtirish g'oyasini amaliyotida va uning institusional asoslarini mustahkamlashda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi muhim rol o'ynaydi. Mamlakatimiz asosiy qomusining 62 moddasida "Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar"deb belgilab qo'yilgan[10].

Yangi O'zbekistonda Respublika shahar va tumanlarida sanitariya jihatidan tozalashning mutlaqo yangi tuzilmasi yaratildi. Barcha joylarda davlat-xususiy sheriklik sharoitida zamonaviy texnologiyalarni qo'llagan holda chiqindilarni to'plash, tashish va qayta ishlash klasterlarini tashkil etishni nazarda tutuvchi chiqindilarni kompleksli boshqarish tizimi joriy etilmoqda. Shu bilan birga,

o'tkazilgan tahlil davomida belgilangan vazifalarning tegishli darajada amalga oshirilishini, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida islohotlarni belgilangan sur'atlarda va samarali amalga oshirilishiga to'sqinlik qiluvchi qator omillar mavjudligi aniqlandi, xususan: birinchi, davlat ekologik inspeksiyaviy faoliyatining yagona vertikali mavjud emasligi hayvonot va o'simlik dunyosi ob'yektlaridan noqonuniy foydalanishga qarshi kurashishni samarali olib borish, shuningdek, atrof-muhitni muhofaza qilish imkonini bermayapti; ikkinchi, sanitariya jihatidan tozalash sohasidagi sub'yektlarning tashkiliy, texnik, iqtisodiy va ishlab chiqarish faoliyati yetarli darajada muvofiqlashtirilmayapti; uchinchi, ekologik targ'ibotni tashkil etish va olib borish bo'yicha samarali mexanizmlarning yo'qligi mazkur yo'nalishda ijtimoiy reklama va amalga oshirilayotgan axborot-tushuntirish ishlarining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda; to'rtinchi, atrof-muhitni muhofaza qilish tizimiga, shu jumladan, atrof-muhit holatini modellashtirish va prognozlashtirishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yetarli darajada joriy etilmayapti[11].

Shuning uchun ham mamlakatimizda yangi rivojlanish bosqichida, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, sanitariya va ekologik holatni yaxshilashni ta'minlash sohasida izchil ishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, bu borada o'tkazilgan tahlil natijalari atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat funksiyalarini amalga oshirishda kompleks yondashuv va strategik rejalashtirishning mavjud emasligi, shuningdek, qo'yilgan vazifalarni samarali bajarish uchun tabiatni muhofaza qilish organining vakolatlari yetarli emasligidan dalolat beradi. Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash, tabiatni muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlari buzilishlari profilaktikasi, ularni aniqlash va oldini olishning samarali mexanizmlarini joriy etish, respublika aholi punktlarining sanitariya va ekologik holati uchun davlat organlari, xo'jalik yurituvchi sub'yektlar rahbarlari va fuqarolarning shaxsiy javobgarligini kuchaytirish, shuningdek, 2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalarga erishishni ta'minlash maqsadida 2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston

Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi tasdiqlandi va unda quyidagi chora-tadbirlar nazarda tutilgan:

atrof-muhit ob'yektlarini (atmosfera havosi, suv, yer, tuproq, yer qa'ri, bioxilmaxillik, qo'riqlanadigan tabiiy hududlar) antropogen ta'sir hamda boshqa salbiy ta'sir qiluvchi omillardan saqlash va sifatini ta'minlash;

ekologik jihatdan eng kam xavf tug'diruvchi materiallardan, mahsulotlardan, ishlab chiqarish ob'yektlari va boshqa ob'yektlardan ustuvor darajada foydalanish;

qo'riqlanadigan tabiiy hududlarni kengaytirish;

zaharli kimyoviy va radioaktiv moddalardan ekologik xavfsiz foydalanishni ta'minlash;

chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirishning ekologik xavfsiz tizimini takomillashtirish;

aholining ekologik madaniyatini shakllantirish, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat organlari faoliyatining shaffoflik darajasini oshirish va fuqarolik jamiyatining rolini kuchaytirish.

MUHOKAMA. Fuqoralik jamiyati sharoitida ekologik xavfsizlikni ta'minlash uchun davlat boshqaruvini takomillashtirishni talab qiladi. Shuning uchun ham respublikada atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik sharoitni yaxshilash, chiqindilarni atrof-muhitga zararli ta'sirini oldini olish va aholi salomatligi, aholi turmush tarzi sifati va darajasini oshirish uchun qulay sharoit yaratish jarayonini ta'minlash maqsadga muvofiq. Ekologik masallarning dolzarbligini, uning inson salomatligi bilan bog'liqligi, demokratik islohatlarga aloqadorligini hisobga olib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 2023 yil 31 maydagi "Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tuzildi[12].

Vazirlik qoshida Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti tashkil qilindi. Universitet tasarufiga Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti, Atrof-muhitni muhofaza qilish

sohasida faoliyat ko'rsatayotgan xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazi, «Eko-energiya» ilmiy tatbiq etish markazi, O'rmon xo'jaligi ilmiy-tadqiqot instituti (filiali, 5 ta ilmiy-tajriba stansiyalari, Cho'l hududlarida o'rmonchilikni rivojlantirish ilmiy markazi, O'rmon xo'jaligini rivojlantirish innovasion markazi), O'rmon xo'jaligi texnikumi, Toshkent gidrometeorologiya texnikumi, Gidrometeorologiya ilmiy tadqiqot instituti o'tkazildi.

Mamlakatimizda inson ekologiyasi yechimidagi masallarga yordam berishda O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligining tashkil etilishi ham muhim ahamiyat kasb etdi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligining tuzilganligini ham ta'kidlash lozim. Chunki kambag'alchilikning mavjudligi ekologik muvozonatning buzilishiga olib keladigan sabablardan biridir. Shu borada qo'riqlanadigan hududlarda, ba'zi hollarda flora va faunaning noyob turlarining inson antropologik faoliyati tufayli nobud qilish holatlari mavjud. Ekologik muammolarning ob'yektiv mazmunda yoritilishida xususiy axborot vositalari muhim rol o'ynamoqda. E'tiborga molik jihati shundaki, ommaviy axborot vositalarining tarkibi ham tubdan o'zgarib bormoqda. Buni yurtimizdagi barcha telekanallarning qariyb 53 foizi, radiokanallarning esa 85 foizi nodavlat ommaviy axborot vositalaridir[13].

XULOSA

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, ta'lim muasasalari, jamoat tashkilotlari, fuqoralik jamiyati institutlari bilan hamkorlikda yoshlar orasida uzluksiz ekologik ta'lim-tarbiya tizimi muntazam takomillashtirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va Xalq ta'limi vazirligi tomonidan ekologik ta'lim yo'nalishidagi darsliklar, o'quv qo'llanmalari, tavsiyalar tayyorlandi. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan o'quv dasturlari, o'quv qo'llanmalar o'quv yurtlariga etkazildi. Talabalarning ekologik tarbiyasida muhim o'ringa ega bo'lgan Ekologiya, va Atrof-muhitni muhofaza qilish fanlari oliy

o'quv yurtlarida o'qitilishi yo'lga qo'yildi. Mamlakatimizda ekolog mutaxassislar tayyorlash masalasi tubdan yangilandi. Oliy pedagogik ta'limda ekologik ta'lim va tarbiya ishining mukammallashtirish, uni demokratik islohatlar talablari asosida tashkil etishda O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzurida ish olib borayotgan axborot markazining ishini alohida ta'kidlash lozim. Ushbu qo'mitaning ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda ishlarni tashkil etish bo'yicha tavsiyalar dasturi amaliyotga joriy etildi, qo'mitaning sa'y-harakati bilan Ekologiya xabarnomasi jurnali nashr etilmoqda. Muntazam sur'atda ommaviy axborot vositalari orqali ekologiyaning dolzarb masalalari, atrof-muhitni saqlash bo'yicha tavsiyalar yoshlar orasida tarqatilmoqda, ularda ekologik ong, tafakkurning rivojlanishi bo'yicha tavsiyalar berilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Миддендорф А. Ф. Путешествие на Север и Восток Сибири. Ч. 2. Север и Восток Сибири в естественно-историческом отношении/ Репринтное воспроизведение изданий 1869 и 1878 годов. Отдел V. Сибирская фауна. Отдел VI. Коренные жители Сибири. - СПб.: ООО Изд-во ГеоГраф, 2006. - 850 с., ил.
2. Геккель, Эрнст. [Красота форм в природе](#). - СПб.: [Издательство Вернера Регена](#), 2007. - С. 144. - ISBN 5-903070-08-6. Геккель, Эрнст. Мировые загадки. Общедоступные очерки монистической философии. - М.: [Либроком](#), 2012. - С. 256. - ISBN 978-5-397-02200-2.
3. Мёбиус Карл Август // [Большая советская энциклопедия](#): [в 30 т.] / под ред. [А. М. Прохоров](#) 3-е изд. - М.: [Советская энциклопедия](#), 1969.
4. Ҳақимов Н.Ҳ. Зулфикооров Ш.Х. Қодиров Н.Н. Ўзбекистон янги тараққиёт босқичида. -Тошкент, Иқтисодиёт, 2022.Бет. 365. Ҳақимов Н.Ҳ. Инсон экологияси. Тошкент, Иқтисодиёт, 2021.Бет. 345.
5. Ҳуррият, 23 май 2012 йил.
<http://parliament.gov.uz/upload/iblock/fad/jojtgejkaibldbsionxbpjwjjpslnutde%20hmxnrhyrijuk-bcyoaaejwmtmee.pdf>
6. Бозорова Н.Ш. Талабаларда экологик маданиятни ривожлантиришнинг илмий-педагогик асослари (олий ўқув юрти мисолида) тадқиқ қилган. Пед. фан. ном...дисс. – Т. 2006. -9 б.
7. Маликова А.Р. Педагогика олий ўқув юрти талабаларида экологик маданиятни шакллантириш: Пед.фан.номз ... дисс. – Т.: 2010. -8 б.
8. Мамашакиров С.Ваҳимами уоқи ҳақиқат. -Тошкент, Иқтисод- молия, 2012.Б.8.

9. Нишонова Н.Ў. Умумий ўрта таълим мактаб ўқувчиларининг экологик маданиятини ривожлантириш жиҳатларини таҳлил қилган (адабий таълим мисолида): Пед. фанл, номз. ... дисс. – Т.: 2001. -4 б.

10. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. 62 модда.
<https://lex.uz/docs/6445145>

11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Экология ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш соҳасида давлат бошқаруви тизимини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида» 2018 йил 3 октябрдаги қарори.

12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори. [Экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши вазирлиги фаолиятини самарали ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида.](https://lex.uz/docs/6479134#6482680)
<https://lex.uz/docs/6479134#6482680>

13. Шавкат Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Том 1, Тошкент, -Ўзбекистон, 2017, -Б. 498..